

BEHBUDIY PEDAGOGIK QARASHLARINING SHAKLLANISHI

*Samarqand davlat pedagogika instituti Tillar fakulteti O'zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi 1-kurs magistranti Islomova Lola
Ilmiy rahbar: Nor-Muhammad Ubaydullayev*

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadidchilik harakatining yirik namoyandasi ning pedagogik qarashlari, ularning shakllanish omillari hamda o'zbek milliy ta'lim tizimi rivojida o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, uning yangi usul maktablari, ta'lim mazmuni va tarbiya masalalariga oid g'oyalari ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, yangi usul maktabi, ma'rifatparvarlik, pedagogika, milliy uyg'onish, ta'lim islohoti.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida katta o'zgarishlar yuz berdi. Bu davrda jadidchilik harakati shakllanib, jamiyatni yangilash, xalqni ilm-ma'rifat orqali rivojlantirish g'oyasi ilgari surildi. Ana shu harakatning yetakchi namoyandalaridan biri Mahmudxo'ja Behbudiy bo'lib, u nafaqat siyosiy va ijtimoiy arbob, balki ilg'or pedagog sifatida ham muhim iz qoldirgan.

Behbudiy pedagogik qarashlarining shakllanish omillari: Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik qarashlari bir necha muhim omillar ta'sirida shakllangan: Birinchidan, u yashagan davr ijtimoiy muhitining ta'siri katta bo'ldi. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi sharoitida mahalliy aholining savodsizlik darajasi yuqori edi. Bu esa Behbudiyning ta'lim tizimini isloh qilish zarurligi haqida o'ylashga undadi. Ikkinchidan, uning chet el safarlari muhim rol o'ynadi. Behbudiy Turkiya, Misr kabi davlatlarda bo'lib, u yerdagi zamonaviy maktab tizimi bilan tanishdi. Aynan shu tajriba asosida u eski maktablarni yangilash zarurligini anglab yetdi. Xususan, Rossiya ta'lim tizimi dagi yutuqlar va kamchiliklarni rus-tuzem maktablarini kuzatish orqali tahlil qildi va bu uning darsliklarida tezroq savod chiqarish usullarini yaratishiga turtki bo'ldi. Uchinchidan, jadidchilik harakati va uning g'oyalari Behbudiy dunyoqarashini shakllantirdi. Jadidlar ta'lim orqali jamiyatni rivojlantirish mumkin deb hisoblaganlar. Behbudiyning pedagogik qarashlari quyidagi asosiy yo'nalishlarda namoyon bo'ladi:

. Yangi usul maktablari (usuli jadid) Behbudiy eski maktab tizimini tanqid qilib, yangi usuldagi maktablarni joriy etishni taklif etdi. Bu maktablarda:

- fonetik usulda savod o'rgatish,
- dunyoviy fanlarni kiritish,
- darslarni tizimli tashkil etish asosiy o'rin egalladi.

U ta'limni faqat bilim berish emas, balki shaxsni har tomonlama tarbiyalash vositasi deb bildi. Behbudiy nazarida axloqiy tarbiya, vatanparvarlik va ma'naviyat muhim ahamiyatga ega edi. Behbudiy ta'lim orqali millatni uyg'otish mumkinligini

ta'kidladi. U maktablarni milliy ongini shakllantiruvchi asosiy muassasa sifatida ko'rdi. Behbudiy ayollarni o'qitish masalasini ham ko'tardi. Uning fikricha, jamiyat taraqqiyoti uchun ayollarning bilimi asosiy o'rin egallaydi. Mahmudxo'ja Behbudiy o'z pedagogik faoliyati orqali o'zbek ta'lim tizimida tub burilish yasadi. U yangi usul maktablarini tashkil etdi, darsliklar yozdi, matbuot orqali ta'lim g'oyalari targ'ib qildi. Uning "Padarkush" dramasi ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, yoshlarni ilmga chaqirish g'oyasini ilgari suradi. U yaratgan darsliklar 1908-yilda „Kitobat ul atfol“ („Bolalar xati“), 1904-yilda „Risolayi asbobi savod“ („Savod chiqarish kitobi“) maktab ta'limida bolalarning tezroq savod chiqarishini ta'minladi. Sababi, ushbu darsliklardan o'qitish tizimli, oson va o'zlashtirish uchun qiyinchilik tug'dirmas edi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo'ja Behbudiy pedagogik qarashlari o'z davri uchun nihoyatda ilg'or bo'lib, bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Uning ta'limni modernizatsiya qilish, milliy ongini shakllantirish va jamiyatni ma'rifat orqali rivojlantirishga qaratilgan g'oyalari hozirgi zamon pedagogikasi uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Naim Karimov „Mahmudxo'ja Behbudiy“. Toshkent-2010-21-bet.
2. Jadidlar to'plami. Mahmudxo'ja Behbudiy. Toshkent-2022
3. Begali Qosimov „Mahmudxo'ja Behbudiy“ kh-davron.uz Xurshid Davron kutubxonasi (2014-yil 19-yanvar)
4. Begali Qosimov. Milliy uyg'onish.. –T.: Ma'naviyat, 1999.